

BURUN BOSHIG'I GEMANGIOMALARINING SAMARQAND VILOYATI HUDUDLARIDA BEMORLARNING KASALLANISH DARAJASI TAHLILI

Ne'matov O'ktam Suynovich

PhD, ассистент

DKTF Otorinolaringologiya kafedrası

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada burun boshlig'i gemangiomasining samarqand viloyati hududlarida bemorlarning kasallanish darajasi o'rganilgan. Ma'lumotlar 2014 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda Samarqand davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi Otorinolaringologiya bo'limiga murojaat etgan burun bo'shlig'ining xavfsiz qon tomir hosilalari (BBXTH) mavjud 73 nafar bemorlarda tadqiqot olib borilgan. Asosiy e'tibor ularning postoperatsion sohasidagi sub'ektiv sezgilariga (og'riq, nevrologik buzilishlar, noqulaylik), nafas olish funksiyalari buzilishiga, tegishli burun yo'lidan ajralmalarning mavjudligiga qaratildi. BBXTH qayd etilgan bemorlar orasida asosiy guruhda ayollar 47 nafarni (64,4%), erkaklar 26 nafarni (36,6%) tashkil etdi. Shuningdek, BBXTH mavjud bo'lgan bemorlar orasida o'xshash tamoyil kuzatilgan. Ayol bemorlar 47 nafar (64,4%), erkaklar 26 nafar (36,6%) bo'lgan.

Kalit so'zlar: bemorlar, burun boshlig'i gemangiomas, samarqand viloyati, hududlar, erkaklar, ayollar, kasallik belgilari.

ANALYSIS OF THE INCIDENCE RATE OF PATIENTS WITH NASAL CAVITY HEMANGIOMAS IN THE REGIONS OF THE SAMARKAND REGION

Ne'matov O'ktam Suynovich, PhD, Assistant

Department of Otorhinolaryngology,

Faculty of Postgraduate Education

Samarkand State Medical University

Abstract: The article examines the incidence rate of patients with nasal cavity hemangiomas in the regions of the Samarkand region. The study was conducted

based on data from 73 patients with benign vascular formations of the nasal cavity who applied to the Department of Otorhinolaryngology of the multidisciplinary clinic of Samarkand State Medical University during the period from 2014 to 2021.

The main focus was on patients' subjective sensations in the postoperative period (pain, neurological disorders, discomfort), impairment of respiratory function, as well as the presence of discharge from the corresponding nasal passage. Among patients with benign vascular formations of the nasal cavity in the main group, women accounted for 47 (64.4%), and men for 26 (36.6%). A similar trend was observed in the overall group of patients: women — 47 (64.4%), men — 26 (36.6%).

Keywords: patients, nasal cavity hemangioma, Samarkand region, regions, men, women, symptoms of the disease.

Kirish. Odamlarda uchraydigan barcha xavfsiz hosilalar orasida, qon tomir hosilalari 1-7% ni tashkil qiladi. Gemangiomalar uchun, burun bo'shlig'i noodatiy joylashuv o'rni sanalsada, uning barcha hosilalar orasida ulushi 2-3%ni, xavfsiz hosilalar orasida esa - 7% ko'rsatkichni tashkil etadi [1,2]. Gemangioma barcha yosh guruhlarida uchraydi, bunda bir necha cho'qqilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: jumladan bolalar va o'smirlarda, reproduktiv yoshdagi ayollar ko'proq uchrasa, 40 yoshdan katta bo'lgan guruhda teng taqsimlanish kuzatiladi. Burun bo'shlig'ining gemangiomasi mavjud bo'lgan bemorlarda burundan nafas olishning qiyinlashishi va davriy ravishda bir tomonlama burun qonashlari, burunda yot jismni his qilish ilk hamda yetakchi alomatlar hisoblanadi.

Lutfullayev U.L. (2017), Antoniv V.F. (2015), Lutfullayev G.U. (2018) lar gemangiomalarni angiодisplaziyalarga emas, balki hosilalarga tegishli deb hisoblashadi. Mualliflar ilgari surgan nazariyaga ko'ra, gemangiomalar haqiqiy hosilalar bo'lib, ularning rivojlanishi va o'sishi to'qimada mavjud bo'lgan va shubhasiz, embrional rivojlanishni erta bosqichlarida saqlanib qoladigan angiogen elementlarning (angioblastlar, qon tomir devorining kam takomillashgna komponentlari) intensiv proliferatsiyasi bilan bog'liq [3,4,5].


Burun bo'shlig'i gemangiomasini erta rivojlanish bosqichidagi belgilari yetarlicha o'rganilmagan; boshqa hosilalarni o'rganishda o'zini oqlagan qator usullarning diagnostik ahamiyati aniqlanmagan; jarroxlik davolash uchun aniq shakllangan ko'rsatmalar mavjud emas; ushbu hosilalarda terapevtik ta'sirlarni kombinirlangan va qo'shma ko'rinishlarda qo'llash imkoniyatlari o'rganilmagan [6,7].

Afsuski, gemangiomalarda qaytalanish darajasi 15% gacha yetishi mumkin. LOR-a'zolarining qon tomir hosilalari bilan kurashish juda dolzarb sanalib, uning hal qilinishi katta amaliy ahamiyatga ega.

Ishning maqsadi. Burun boshlig'i gemangiomalarning samarqand viloyati hududlarida bemorlarning kasallanish darajasi tahlil qilish.

Tadqiqot materiallari va usullari. 2014 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda Samarqand davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi Otorinolarinologiya bo'limiga murojaat etgan burun bo'shlig'ining xavfsiz qon tomir hosilalari (BBXTH) mavjud 73 nafar bemorlarda tadqiqot olib borilgan. Tadqiqot uchun burun bo'shlig'ining xavfsiz qon tomir o'smalari (BBXTO) tashxisi laborator va instrumental tashxisot usullari bilan tasdiqlangan. LOR a'zolarining o'smalari diagnostikasida endoskopik usul asosiy bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Samarqand viloyati hududlarida bemorlarning kasallanish darajasi tahlil qilindi. Samarqand viloyati kesimida xavfsiz qon tomir o'smalari bilan og'rigan bemorlarning murojaat etishi quyidagicha bo'lgan.



.1-rasm. Samarqand viloyati kesimida kasallikning uchrash holatlari tahlili

1.-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, Nurobod tumanidan 22 nafar bemor, Kattaqo'rg'on tumanidan 4 nafar bemor, Qo'shrabot tumanidan 10 nafar

bemor, Pastdarg‘omchi tumanidan 2 nafar bemor murojaat etgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiq, burun bo‘shlig‘ining xavfsiz qon tomir o‘smalari bilan og‘rigan bemorlarning operatsiyadan oldingi sub‘ektiv va ob‘ektiv ma‘lumotlari tahlil qilindi. Bemorlarning operatsiyadan oldingi klinik tekshiruvini tahlil qilish quyidagi parametrlar bo‘yicha amalga oshirildi:

- Kasallikning birinchi ko‘rinishi - bemor birinchi marta tibbiy yordam uchun shikoyatlari bilan murojaat etishi yoki boshqa kasallik tufayli tekshiruvdan o‘tish paytida, odatda nevrologik yoki otolaringologik patologiyani aniqlashga qaratilgan vizualizatsiya – KT yoki MRTda tasodifan aniqlanishidir.

- Bemorning jarrohlik yo‘li bilan davolash uchun kasalxonaga yotqizilgan vaqtidagi shikoyatlari.

Bemorning jarrohlik yo‘li bilan davolanishi oldidan shikoyatlarini baholaganda, asosiy shikoyatlaridan biri bosh og‘rig‘i bo‘lib, 71 nafar (97%) bemor ushbu shikoyatni bildirgan. 71 nafar (97%) bemor burundan qonli ajralmalar ajralishiga shikoyat qilishgan. 44 nafar (61%) bemorda darmonsizlik, 65 nafar bemorda hid bilish sezgisining pasayganligi aniqlandi.

1-jadval.

Jarrohlik yo‘li bilan davolashdan oldin bemorlarning shikoyatlari tarkibi

Shikoyatlari	abs	M±m,%	Xi-kvadrat
Bosh og‘rig‘i	71	97,84±1,23	127,259
Burundan qonli ajralmalar ajralishi	71	97,84±1,23	127,259
Burun bitishi	61	83,45±3,15	62,223
Darmonsizlik	45	61,43±4,15	89,650
Hid bilishning pasayishi	44	46,76±4,23	0,583

Bemorning rentgenologik yoki kompyuter-tomografik tekshiruv paytida burun bo‘shlig‘ida o‘zgarishlarning aniqlanishi otorinolarinologga murojaat etishiga sabab bo‘ldi. Tadqiqot maqsadiga muvofiq bemorlarni davolashning umumiy samaradorligi ikkala turli guruhda: asosiy va nazorat guruhida o‘rganildi.

Qo‘llanilgan davo usuliga ko‘ra, burun bo‘shlig‘i xavfsiz qon tomir hosilalari bilan og‘rigan bemorlar 3 guruhga ajratildi:

Asosiy A guruh – an’anaviy davo fonida polideksa dori vositasi qabul qilgan bemorlar (25 nafar bemor);

Asosiy B guruh – an’anaviy davo fonida arpabodiyon efir moyi va polideksa preparati qabul qilgan bemorlar (28 nafar bemor).

Qiyosiy guruh – an’anaviy davo (AD) qabul qilganlar (20 nafar bemor);

AD - hosila jarroxlik yo‘li bilan olib tashlangan bemorlarni o‘z ichiga oldi.

Endogen intoksikatsiya va boshqa laborator ma’lumotlarni tafsillash uchun 20 nafar amaliy sog‘lom shaxslar tanlandi.

Xulosa. Asosiy e’tibor ularning postoperatsion sohasidagi sub’ektiv sezgilariga (og‘riq, nevrologik buzilishlar, noqulaylik), nafas olish funksiyalari buzilishiga, tegishli burun yo‘lidagi ajralmalarning mavjudligiga qaratildi. BBXTH qayd etilgan bemorlar orasida asosiy guruhda ayollar 47 nafarni (64,4%), erkaklar 26 nafarni (36,6%) tashkil etdi. Shuningdek, BBXTH mavjud bo‘lgan bemorlar orasida o‘xshash tamoyil kuzatilgan. Ayol bemorlar 47 nafar (64,4%), erkaklar 26 nafar (36,6%) bo‘lgan. Asosiy va taqqoslash guruhlarida jinsiy belgi bo‘yicha statistik ahamiyatli tafovut aniqlanmadi ($p>0,05$). Taqqoslanuvchi guruhlarda bemorlarning yosh tahlili ham o‘tkazildi. Asosiy va taqqoslash guruhlarida yoshning o‘rtacha kattaligi bo‘yicha olingan natijalarga muvofiq tekshirilgan bemorlarda statistik ahamiyatli tafovut aniqlanmadi ($p>0,05$).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Антонів Т.В., Казанова Н.І., Грігорьева І.Н.. Капиллярная гемангиома ЛОР-органов (клиника, диагностика, лечение). Журнал: Вестник оториноларингологии. 2012;77(1): С. 11-13.
2. Антонив В.Ф., Ефимочкина К.В., с соавт. Применение фибриноколлагенового комплекса при хирургическом лечении больных сосудистыми опухолями уха и наружного носа. Материалы II науч.-практ. Конф. Оториноларингологов Южного федерального округа, 28-29 сентября, 2006, с. 8-9.

3. Лутфуллаев Г. У. и др. Случай из практики: гемангиома полости носа у беременной женщины //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 10-4 (88). – С. 89-92.
4. Лутфуллаев Г. У. и др. Роль иммуномодуляторов в лечении синуситов при доброкачественных новообразованиях носа и околоносовых пазух //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 10-4 (88). – С. 85-89.
5. Лутфуллаев Г. У., Неъматов У. С., Сафарова Н. И. НАШ ОПЫТ ЛЕЧЕНИЯ ГЕМАНГИОМ ПОЛОСТИ НОСА //daUcX_X`nX eXha^ aV [[W [SVade [][^ XjX[r U aeac [a^ Sc [Va^ aV. – С. 249.
6. Маматалиев А. Р. НАРУШЕНИЕ ИННЕРВАЦИИ И МУТАЦИОННЫЙ ПРОЦЕСС В ТКАНИ //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-2 (131). – С. 876-880.
7. Ярмухамедова С. Х., Бекмурадова М. С., Назаров Ф. Ю. Диагностическая ценность натрийуретического пептида при выявлении пациентов с бессимптомной систолической или диастолической дисфункцией //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 8 (62). – С. 84-88.